



## MUZEY EKSKURSIYASIDA TANGALAR MAVZUSI YORITILISHI

**Yunusov Komiljon Alimdjanovich**

*Oriental universiteti ilmiy xodimi;*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*magistratura bosqichi bitiruvchisi*

*Tel.: +998 94 650-44-12*

*E-mail: [komiljonyunuszoda@gmail.com](mailto:komiljonyunuszoda@gmail.com)*

**Annotation:** Maqolada muzey kolleksiyalarida saqlanuvchi tangalar xususida fikr yuritilgan. Tangalar old va orqa tomonidagi bitiklari, tasvirlari, shakli va tarkibiga ko'ra tarixshunoslik uchun qimmatli ma'lumotlar beradi. Ba'zan kitoblarda uchramaydigan ma'lumotlarni tangalardan topib o'rGANAMIZ. Shuning uchun, maqolada tangalarning ilmiy ahamiyati, hamda qadimgi davrlardagi madaniyatni, ijtimoiy-iqtisodiy holatni, diniy-mafkuraviy masalalarni tadqiq etishdagi o'rni xususida so'z yuritamiz. Jumladan, hunarmandchilik va san'at tarixini, xattotlik va tilshunoslikni, xalqaro munosabatlar va shaharsozlikni o'rganishda, shuningdek, shajara va xarita tuzishda tangashunoslikka oid tadqiqtlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur jihatlarni e'tiborga olgan holda muzey ekskursiyasini tashkil etish va ekskursovodlar tomonidan tangalar mavzusini yoritishga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Key words:** muzey, tanga, tarix, ekskursiya, ekskursiyachi, numizmatika, tadqiqot, tarixshunoslik.

## HIGHLIGHTING THE TOPIC OF COINS IN THE MUSEUM TOUR

**Annotation:** In the article, the coins in museum collections are discussed. Coins provide valuable information for historiography based on their obverse and reverse inscriptions, images, shape and composition. Sometimes we get information from coins that we cannot find in books. Therefore, in the article, we will talk about the scientific significance of coins, as well as their role in the study of culture, socio-economic situation, and religious-ideological issues of ancient times. In particular, information is given about the importance of the researches in numismatics in the study of craft and art history, calligraphy and linguistics, international relations and urban planning, as well as in genealogy and map making. Taking into account these aspects, opinions on the organization of the museum excursion and the illumination of the topic of coins by the tour guides were presented.

**Key words:** museum, coin, history, excursion, guide, numismatics, research, historiography.

## ОСВЕЩЕНИЕ ТЕМЫ МОНЕТ В ЭКСКУРСИИ ПО МУЗЕЮ



**Аннотация:** В статье рассматриваются монеты, находящиеся в музеиных коллекциях. Монеты предоставляют ценную информацию для историографии благодаря надписям на аверсе и реверсе, изображениям, форме и составу. Иногда из монет мы получаем информацию, которую не можем найти в книгах. Поэтому в статье мы поговорим о научной значимости монет, а также их роли в изучении культуры, социально-экономической ситуации и религиозно-идеологических вопросов древности. В частности, приводятся сведения о значении исследований по нумизматике в изучении истории ремесла и искусства, каллиграфии и лингвистики, международных отношений и градостроительства, а также в генеалогии и картографировании. С учетом этих аспектов были представлены мнения по организации экскурсии по музею и освещению темы монет экскурсоводами.

**Ключевые слова:** музей, монета, история, экскурсия, экскурсовод, нумизматика, исследование, историография.

## KIRISH

Muzeylar asosan tarixiy ashyolarni saqlab namoyish etuvchi muassasa bo'lib, ularning aksariyatida qadimiy tangalar mavjud. Bu esa ekskursiya davomida tangalar haqida ma'lumot berishni taqozo etadi. Albatta, muzey yo'lko'rsatkichlarida tangalarga oid ma'lumotlar qayd etiladi. Ammo, ushbu maqolada tangalarni tadqiq etish orqali o'rghanish mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar haqida fikr yuritamiz. Ba'zan, tarixiy manbalarda yozilmagan ma'lumotlarni tangalardan topish mumkin. Tanga zarb etilgan davrning taraqqiyot darajasini, siyosiy barqarorligini, davlatning suveren ekanligini, davlat boshqaruvi shaklini, madaniyatini, san'atini, hunarmandchilik rivojini, ta'lim savodxonligini, urf-odatlarini, turmush darajasini va boshqa ko'plab xususiyatlarini namoyon etadi. Tangalar mavzusining o'zi bir necha soat ma'ruza qilish uchun yetarlidir. Shuning uchun muzey ekskursovodlari tangalarga oid bilimlarini turli tadqiqot natijalarini o'rghanish orqali boyitib olishlari manfaatlidir. "Numizmatika, tangalar haqidagi fan, jahon sivilizatsiyalariga oid juda ko'p ma'lumotlarni ochib berdi, boshqa hech qanaqa yo'l bilan bu natijaga erishib bo'lmasdi", - deya iqror bo'lgandi Frank Holt. (Frank H., 2021) Tarixga nazar tashlar ekanmiz, bundan ming yil avval yurtimizda kimlar yashagan, ular qaysi tilda gaplashib qanday yozuvdan foydalangan, shaharlari va hukmdorlarining nomlari nima edi, ular qanday libosda va qiyofada bo'lgan, davlatlari sarjadi qayerlargacha yetgan – bularning hammasini tangalarni tadqiq etish orqali aniqlash mumkin. "Tangalar, numizmatika - tangalar haqidagi fan, tangadan foydalangan qadimgi davlatlarning siyosiy tarixini, portret san'atini, e'tiqodlarini, marosimlarini, iqtisodiyoti va tabiatini o'rghanishda katta ahamiyatga ega", - deb yozgandi olima Musakayeva. (Мусакаева А., 2009: 144)

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI



Tangalarni o'rganuvchi fan sohasi numizmatika deb ataladi. O'zbekistonda Irpon Tuxtiyev, Alfiya Musakayeva kabi olimlar tangashunoslik fani rivojiga katta hissa qo'shganlar. Irpon Tuxtiyevning "Amir Temur va Temuriylarning moliya-pul siyosati" nomli kitobi chop etilgan. Alfiya Musakayeva tomonidan "О несторианах в Средней Азии (по нумизматическим данным)", "Античные и раннесредневековые монеты Музея истории народов Узбекистана", "Начальный этап денежного обращения в Чаче", "Монеты Западного Согда (III в. до н. э. - VIII в.)", "Византийская монета императора Аркадия с городища Канка", "Монета с изображением всадника", "New finds of coins and archeological objects with Christian symbols from Sughd and Chach" kabi ilmiy maqolalar chop etilgan. Shuningdek, Edvard Rtveldzening tadqiqot ishlarida ham tangalarga oid anchagina ma'lumotlar mavjud. Bu mutaxassislardan tashqari o'zbek tilida tangalar mavzusida boshqa ko'plab maqolalar chop etilgan bo'lsa-da, afsuski, ularda ma'lumotlar bir-birini takrorlash holatlari ko'p uchradi. Xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlariga murojaat etilganda numizmatikaga oid ko'pgina kitoblar va maqolalar borligi aniqlandi. Ular orasida ilmiy yangiliklarga boyligi hamda mavzuyimizga yaqinligi bilan "Rethinking numismatics. The archaeology of coins" nomli maqola e'tiborimizni tortdi. Fleur Kemmers va Nanouschka Myrberg muallifligida Kembrij universiteti tomonidan nashr etilgan ushbu maqolada numizmatika shunchaki tarixshunoslikning bir qismi emasligi, bu soha biz o'ylagandan ko'ra ahamiyatliroq alohida fan ekanligi ta'kidlangan. Ularning qayd etishicha, tangalar moddiy madaniy meros sifatida qadimgi iqtisodiy holatga, savdo aloqalariga va siyosiy tuzumlarga nazar tashlashimizga imkon beradi. Qadimgi xalqlarni, ularning o'zaro munosabatlarini tadqiq etishda arxeologiya sohasida tangalardan foydalanish katta samara berishini, jamiyatdagi tabaqalashuvni, madaniy qadriyatlarni, diniy qarashlarni o'rganishda qo'l keladi. Shuningdek, maqolada qadimiy tangalarni tadqiq etish uchun numizmatika, arxeologiya va san'at tarixi bo'yicha fanlararo hamkorlikda izlanish qilish xususida fikrlarini bayon etishgan. Qadimgi jamiyatlarda boylik taqsimotini o'rganishda ham tangalar ahamiyatli ekanini e'tirof etishgan. Qolaversa, ajdodlarimiz tanga zarb qilishda qanday texnologik usullardan foydalanganiga oid farazlarni shakllantirish mumkin. (Kemmers F., Myrberg N., 2011: 87-108) Umuman, bizning mavzuyimiz kabi tangalarning ba'zi informativlik xususiyati haqida so'z yuritilganiga guvoh bo'lib turibmiz. Ammo unda mazkur ma'lumotlarni ekskursiya bilan bog'liqligiga urg'u berilmagan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qadimiy tangalarni o'rganish jarayonida muzey ekskursiyasi mavzusini boyitadigan ko'plab ma'lumotlarni olish mumkinligi aniqlandi. "Tangalar o'tmish darakchilari" kitobida aytishicha, tangalar tarix, arxeologiya, iqtisod, tilshunoslik va san'atshunoslikka oid masalalarni hal etishga yaqindan yordam beradi. (Ernazarova T., Kochnev B., 1977: 3) Temuriylar tarixi davlat muzeyida faoliyat yuritayotganidma, aniqrog'i 2018-yili, Temuriylar davri tangalari haqida mavzuli ekskursiya matni tayyorlaganman. Bu haqda talabgor tashrifchilarga ekskursiyalar ham o'tib berilgan.



Quyida to'plangan ma'lumotlar asosida tangalar nimalardan darak berishini aytib o'tmoqchiman:

- Tanga zarb etilgan davrning taraqqiyot darajasidan xabar beradi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan tangalarning oltin yoki misdan ekanligi, shuningdek, shakli, yozuvi va naqshlarining holati o'sha davrning taraqqiyotini bildiradi. Masalan, IX-X asrlar birinchi renessans ekanligini, ilm-fan va san'atda yuksak taraqqiyotga erishilganini tangalarning ko'rinishi ham tasdiqlaydi. Bu davrda zarb qilingan somoniy hukmdorlar tangalari yozuvlarining nafisligi, shaklning dum-dumaloq va yuzasining bir tekis qalinlikda ekanligi texnologik taraqqiyotga erishilganidan dalolat beradi. Somoniylar tangalarining hozirgi kungacha yaxshi holatda yetib kelganligi esa tangalarning tarkibiy tuzilmasi ham sifatli bo'lganligini anglatadi. Endi, mo'g'ul bosqinidan keyin zarb etilgan tangalarni solishtirsak, hech bir jabhada somoniylar tangasi bilan bellasha olmaydi. Sababi, birinchi uyg'onish davrining umrini uzaytiradigan mutaxassislar yetishmay qolgandi. Demak, tangalar o'z davrining rivojlanish darajasidan guvohlik berib turar ekan.

- Tangalar davlatning siyosiy barqarorligini, uning suveren ekanligini, davlat boshqaruvi shaklini ma'lum etib turadi. Odatda, podshohlar o'z nomlarini tangalarga yozdirishgan. Tanganing pastki qismida zarb etilgan yil ham qayd etilgan. Biz bu orqali kim necha yil hukmronlik qilganini aniqlay olamiz. Yana ba'zi davrlar bo'lganki, tangalarda hukmdor nomi tez-tez almashib turgan, yoki podshohga noib bo'lganlar o'z viloyatida o'zining nomidan tanga zarb qildirib, mustaqillikka intilayotganini shu tarzda bildirgan. Bu kabi holatlarni o'rganish orqali tariximizning barqaror davrlarini aniqlashimiz mumkin. Birgina misol, 1370-yildan boshlab, 1405-yilgacha Amir Temur nomi bitilgan tangalar amalda bo'lgan, undan keyin hokimiyatga kelgan ba'zi temuriylar ham Sohibqiron nomini tangadan olib tashlamagan. Demak, temuriylar davri tariximizning eng barqaror davrlaridan bo'lganini tangalar yordamida asoslash mumkin. Temuriylar tangalarining boshqa hududlarda ham zarb etilib, muomalaga chiqarilishi esa u hududlarning suvereniteti barham topib, temuriylarga bo'ysunganini anglatgan. Tangalardagi podshoh, amir kabi so'zlar esa davlatning boshqaruvi monarxiyaga asoslanganini bildiradi. "Amir Temur va Temuriylarning moliya-pul siyosati" nomli asarda yuqoridagi fikrlarning tasdig'ini ko'ramiz: "Amir Temurning pul-moliya siyosatida qo'llagan chora-tadbirlaridan eng muhimi, albatta, barcha hududlarda o'z nomiga xutba o'qitib, yagona pul muomalasini yo'lga qo'yganidir. Shuning bilan birga, bu butun sultanatning siyosiy, iqtisodiy jihatdan bir yaxlit davlat ekanligini ko'rsatuvchi ramzi, belgisi hamdir", - deya qayd etilgan. (Tuxtiyev I., 2006: 39) 1392-yili Muzaffar hamda Sulton Ahmad ismli shaxslar Eron va Iroqda o'z nomidan tanga zarb qildirganida Amir Temur darg'azab bo'lib, ularni jazoga hukm qilib, bu hududlarni Umarshayxga bergani haqida ham kitobda eslatiladi. (Tuxtiyev I., 2006: 41)

- Qadimiy tangalar madaniyat, san'at va hunarmandchilik rivojidan darak beradi. Qaysi davrda mahoratli ustalar yetishib chiqqan bo'lsa, ularning ijodi bilan



madaniyat gullab-yashnagan. Tangalarning yasalishida ham eng mohir ustalar xizmat ko'rsatganlar. Yozuvlarni bitishda xattotlikning yuksak namunasi ko'rsatishlari, metall buyumlarga kandakorlar tomonidan o'yib, naqshlar tushirilishi, tanga zARB qilish uchun aniq tasvirli qoliplar yasalgani bilan madaniyat va san'atning rivoj topganiga amin bo'lamiz.

Numizmatika fani shajarashunoslik, xaritashunoslik, toponimiya, xattotlik, tilshunoslik, dinshunoslik kabi fanlar va fan yo'naliishlari uchun qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi. Ayni shu mavzuda kengroq to'xtalish uchun quyida fikrlarimizni birmabir keltiramiz:

- Ko'plab qadimiy tangalardan foydalanib shajara tuzish mumkin. Tangalarda hukmdor nomi yozilishini yuqorida qayd etdik. Shu bilan birga, ular kimning farzandi ekanligini ham ko'pincha yozib qoldirishgan (hammasida ham emas). Ayniqsa, musulmon hukmdorlar "ibn" ("o'g'li) so'zini keltirib otalariga nisbat berishgan. Masalan, Nasr ibn Ahmad, Ismoil ibn Ahmad singari ma'lumotlar kishilarning ajdodlarini aniqlash imkonini beradi. Tangadagi yillarning xronologiyasini o'rganish va jadval shakllantirish orqali hukmdorlar shajarasini aniq hukmronlik yillari bilan tiklash mumkin. "Odatda, musulmonlar tangalarida zARB qilingan joy va yil, hukmdor nomi va uning otasi nomi bitilgan. Bu bilan otasi merosxo'ri ekanligi ko'rsatilgan", - deyiladi manbalarda. (Wijdan Ali, 2004: 4)

- Podshohlar o'z sultanati tarkibiga kiruvchi barcha shahar va qishloqlarda o'zining tangalari muomalada bo'lishini ta'minlagan. Shuning uchun, tangalar topilgan joylarni xaritada belgilab ketish hukmdorlarning davlati chegarasini aniqlashda qo'l keladi. Shuningdek, biror hudud qaysi davrda kimning tasarrufiga o'tib ketganini ham tangalardan aniqlash mumkin. Ayniqsa, ikki katta davlat o'rtasidagi hududlarda tangalarning almashtirilish holatlari uchrab turgan. Ya'ni, bir hukmdor shu hududni egallab olgach, eski tangalarni yig'dirib, o'rniga o'z nomidagi tangalarni joriy ettirgan. Ammo, savdo karvonlari olib kelgan qo'shni davlatlar tangalari, yoki o'lpon sifatida olingan tangalar bizni chalg'itmasligi lozim. Bunday tangalarning oz miqdorda topilishi yuqorida nazarda tutilgan ma'nolarni anglatmaydi. Tangalar yordamida qadimiy davlatlar xaritalarini tuzish 100 foiz bo'lmasa ham ijobjiy natija beradi.

- Qadimda mavjud bo'lib, hozirda yo'q bo'lib ketgan shaharlarni o'rganishda, ularning nomlariga aniqlik kiritishda tangalarga murojaat qilish mumkin. Sababi, tangalarda zARB etilgan shahar nomlari ham yozib qoldirilgan. Bu orqali hozirgi shaharlarning avvallari qanday nomlar bilan atalganini ham numizmatik tadqiqotlar orqali aniqlashning imkoniy bor. Yurtimizda zARB etilgan tangalarda ko'plab mahalliy hudud nomlarini uchratamiz.

- Numizmatika xattotlik tarixini o'rganishda ham foydalidir. Ajdodlarimiz qaysi davrlarda kufiy yozuvidan foydalangani, qachon suls yozuvi urf bo'lgani, yoki nasta'liq yozuv uslubi qo'llanilishiga oid izlanishlarni tangalarga asoslangan holda amalgaloshirish mumkin. Qadimiy tangalarda turli yozuv uslublarini ko'rishimiz mazkur fikrlarga muvofiq keladi. Tadqiqotchilar fikricha, tangalarimizdagi yozuvlar ma'lumot



berishi bilan birga bezak vazifasini ham bajaradi, yozuv san'ati tangalarda ham, me'moriy obidalarda ham aks etgan. (Linda Komaroff, 1986: 207)

- Tangalar har bir millatning so'zlashgan tilidan ham dalolat beradi. Xitoy tangalarida xitoycha yozuv, Rim tangalarida lotincha yozuv, bizdagi tangalarda esa arabcha, forscha, turkiycha so'zlar qo'llangan. Temuriylar davrini yodga olsak, bu davrda arab, fors, turkiy va mo'g'ul tillari muloqotda mavjud edi. Shu sababli Temuriylar tangalarida mana shu tillardagi so'zlarni uchratamiz.

- Tarixchilar o'rganadigan masalalardan yana biri diniy ta'lilotlardir. Yurtimizda islomdan oldin zardushtiylik, buddaviylik kabi e'tiqodlar mavjud edi. Ba'zi mavjudotlarga ham alohida e'tibor bergen holda ularni tangalarda tasvirlashgan. Diniy e'tiqodni aks ettiruvchi ba'zi tasvirlar tangalarda namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi Toxariston tangalarida otashdon bilan kohinlar tasvirlangan. (Boboyorov G., 2019: 81) Arablar yurtimizga kirib kelgach, tangalarda o'zgarish bo'ldi va islom dini kalimasi yozila boshlandi. (Nastich V., 2016: 8) Bu holat esa bizning ota-bobolarimiz qachondan boshlab islom dinini qabul qila boshlaganini anglatadi.

- Tangalar psixologiya fani uchun ham qiziqarli manba bo'la oladi, deb o'ylayman. Chunki Somoni hukmdorlar kamtarlik bilan ismlarini bir chekkaga kichik harflar bilan yozishgan, ismlaridan so'ng esa "Alloh uni aziz qilsin" deb qo'shib qo'yishgan. Temuriylar va xonliklar davri tangalarida esa hukmdor nomi katta harflar bilan o'rtada aks etadi: "*Sultonul a'zam al xoqon al odil murshid ud din Sulton... bahodir xolladoloh mulkahu va sultonahu...*" kabi balandparvoz so'zlarni uchratamiz. Bundan ko'rinish turibdiki, xonliklar davrida avtoritar tuzum, monarxiyaga asoslangan oliy hukmronlik, shuhratparastlik va takabburlik illatlari ko'zga tashlanadi.

- Numizmatikaga tayangan holda qaysi hukmdor xalqaro iqtisodiy aloqalarga ko'proq e'tibor bergenini, savdo-sotiq keng yo'lga qo'yilganini aniqlash mumkin. Aytaylik, Xitoy, Koreya, Hindiston, Misr, hamda Yevropa hududlaridan bizning tangalarimiz topilishi o'sha davrda iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, Yevropa tuproqlaridan topilgan kufiy yozuvli yuzlab dirhamlar Somoniylarga tegishli bo'lib chiqqan. (Davidovich E., Dani A., 1998: 400)

- Tangalar shaharlarning mavqeyini ham belgilab beradi. Ma'lumki, oltin tangalar eng qiymati baland tangalar bo'lgani uchun, ularning zarb etilishi hukmdor nazoratida amalga oshirilgan. Soxtalari ishlab chiqarilishiga yo'l qo'yilmagan. Ya'ni, hukmdor poytaxt shaharda davlatni boshqarar ekan, oltin tangalar ham faqat shaharda zarb etilgan. Oltin tangadagi shahar nomi poytaxt qayer bo'lganidan dalolat beradi. Kumush tangalar qaysi shaharlarda zarb etilgani esa o'sha shaharlarning yirik maskanlardan ekanini anglatadi. Mis tangalar esa kichik qo'rg'onlarda ham zarb etilaverilgan.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan tashqari, yana boshqa ilmiy yangiliklarni topib e'lon qilish mumkin. Fleur Kemmers va Nanouschka Myrberg ham o'zlarining tadqiqotida tangalarga asoslanib qadimgi jamiyatlardagi tabaqalanish va madaniy qadriyatlarni aniqlash haqida fikr yuritishgan.



Bu borada tangalardagi bitiklarni to'g'ri o'qish va asl ma'nosida tushunish bilan bog'liq muammolar hamon uchrab turibdi. Qachonlardir o'qib tarjima qilingan bitiklar keyingi tadqiqotchilar tomonidan inkor etilib boshqacha ifodalanayotgan holatlar ham uchramoqda. Markaziy Osiyodagi qadimiy tangalarni o'qish uchun arab va fors tillarini bilishdan tashqari, pahlaviy, baxtar, so'g'd va boshqa tillarni bilish talab etiladi. Ikkinchi muammo esa bitiklarning hammasi ham mukammal eks ettirilmaganidir. Ularni o'sha davrning o'zida ham odamlar o'qiy olmagan yoki o'qishga qiyngangan. Masalan, xonliklar davridagi ba'zi mis tangalar chala zarb qilinganidan qolipdagi tasvir va bitiklar bosilmay qolgan. Tanganing shu tomonlari silliq bo'lib turibdi. Navbatdagi muammo esa vaqt o'tishi bilan misdan yasalgan tangalarning korroziyaga uchrashidir. Ular zax yerda qolib ketgani uchun oksidlanish ta'sirida zararlanadi. Usti ko'k yoki yashil rangdagi qoplama bilan to'ladi. Uni maxsus kimyoviy moddalar bilan tozalash mumkin, ammo yemirilgan joydagi yozuvlarni o'qish qiyinchilik tug'diradi. Shunday katta qiyinchiliklar bilan ma'lumotlar qo'lga kiritilgach, ularni albatta muzeyga tashrif buyurgan odamlarga yetkazish kerak. Yana bir muhim ma'lumotni aytib o'tmasak bo'lmaydi. Amir Temur dastlabki tangalarga faqatgina o'z nomini yozdirmagan – avval Suyurg'at mishxon, undan keyin Amir unvoni bilan Temur nomi bitilgan. Bunda katta ma'no mujassam. Amir Temur bu bilan mamlakatdagi oliy hukmdor o'zi emasligini, taxtda Chingiz avlodidan bo'lmish Suyurg'at mishxon o'tirganini ta'kidlagan. O'sha davrda yerlarimiz Chingiziylar mulki deb hisoblanganini e'tiborga olsak, ularning mulkini tortib olish qarshilik va isyonga olib kelardi. Amir Temur qon to'kilishini oldini olish maqsadida ehtiyyotkor siyosat olib bordi, biroq, amalda mustaqillikni ta'minladi. Suyurg'at mishxon shunchaki qo'g'irchoq xon edi. Tangada bitilgan bu nomlar Amir Temur kabi bobolarimizning naqadar tadbirkor, tinchliksevar, mard, o'z navbatida shuhratparastlikka intilmagan kamtar inson bo'lganini anglaymiz. Bu kabi ma'lumotlarni ekskursiyachilar tahlil qilib odamlarga aytmasa, ma'no-mohiyatini sharhlab ifodalama, muzeyga kelgan odamlar shunchaki tomosha qilib chiqib ketaveradi. Shunday boy ma'lumotlardan bahra olmaslik ma'naviy qashshoqlikka sabab bo'ladi. Muzeyda ekskursiya tinglayotgan har bir tashrifchi ma'naviy yuksalishi uchun bizning tarixiy merosimiz yetarlidir.

## XULOSA

Maqolada tanishib chiqqanimizdek, tangalardagi bitiklarni o'qib-o'rghanish oson vazifa emas. Tangalar tariximiz va madaniyatimiz haqida shunchalar boy ma'lumot bera olar ekan, ularni ekskursiya davomida aytib o'tmaslik ham ma'qul emas. Muzeylardagi etiketkalarga nazar solsak, tanganing davri, zarb etilgan yili, hukmdor nomi kabi umumiylar va qisqa ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Muzeylar ma'rifat maskanidir. Shunday ekan, har bir tashrif buyurgan inson ekskursiya davomida qanchalik boy madaniyat va merosga ega ekanligini his etishi, yangi bilimlarga ega bo'lishi, tafakkuri kengayishi va ma'naviy jihatdan yuksalganini his etishi lozim. Buning uchun ekskursovodlar tangalar haqida umumiylar ma'lumotlarni berish bilan cheklanmasdan, auditoriya vaqtiga hamda qiziqishidan kelib chiqib zaruriy



ma'lumotlarni berib o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Modomiki tangalar o'zida shunchalar boy ma'lumotlarni saqlar ekan, avlodlar bundan xabardor bo'lishga haqli. Bu bilan tangalarga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga ham ekskursiyachilar hissa qo'shgan bo'ladi. Ya'ni, tangalar qadrini tushungan odamlar, mabodo qadimiy tanga topib olsa, ularni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ortadi. Sotib yubormasdan numizmatiklarga topshiradi. Bundan esa muzey kolleksiyalari to'lib, madaniy merosimiz boyib boraveradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tuxtiyev Irpon. (2006) Amir Temur va Temuriylarning moliya-pul siyosati. – Toshkent. – 112 b.
2. Ernazarova T., Kochnev B. (1977) Tangalar o'tmish darakchilari. – Toshkent. – 36 b.
3. Davidovich E., Dani A. (1998) "Coinage and the monetary system" History of civilizations of Central Asia. Volume IV, Paris.
4. Frank Holt. (2021) When money talks: a history of coins and numismatics. Oxford University Press.
5. Nastich Vladimir. (2016) A Survey of the Abbasid Copper Coinage of Transoxiana. Source: [https://www.academia.edu/3734886/A\\_Survey\\_of\\_the\\_Abbasid\\_Copper\\_Coinage\\_of\\_Transoxiana](https://www.academia.edu/3734886/A_Survey_of_the_Abbasid_Copper_Coinage_of_Transoxiana)
6. Мусакаева Алфия. (2009) Начальный этап денежного обращения в Чаче // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёнда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишиланган Ҳалқаро илмий конференция материаллари. – Б. 143-151.
7. Boboyorov G'aybulla. (2019) Qadimgi turkcha unvonli To'xoriston tangalari // O'zbekiston. Til va madaniyat. 2-jild. – B. 80-103.
8. Kemmers Fleur, Myrberg Nanouschka. (2011) Rethinking numismatics. The archaeology of coins. *Archaeological Dialogues*, Volume 18, Issue 1, - pp. 87-108.
9. Linda Komaroff. (1986) "The epigraphy of Temurid coinage: some preliminary remarks" Museum Notes (American Numismatic Society) Vol. 31, pp. 207-232.
10. Wijdan Ali. (2004) Islamic coins during the Umayyad, Abbasid, Andalusian and Fatimid dynasties. – Manchester: Foundation for Science, Technology and Civilizations.